

Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-u saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi.

Islom KARIMOV

# TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2009-yil  
14-dekabr  
N:50  
(66747)

ISSN - 2010-6092

2010-yil -  
*Barkamol avlod*

YIL



## KO'ZIM QORACHIG'I

*Umid go'llaringda misoli bayroq,  
Ishonch kelajak-chun yoqilgan mayoq.  
Ertangi kuningga doim dadil boq,  
Yurtim dilbandlari barkamol avlod!*

*Momolarim aytgan alla dilingda,  
Istiglol qo'shig'i yangrar tilingda.  
Vatan kelajagi, shoni qo'lingda,  
Yurtim dilbandlari barkamol avlod!*

*Ko'zim qorachig'i Vatan yagona,  
Senga gard yuqtirmay bo'lar parvona.  
Bundan-da yuksakroq baxt bormi yana,  
Yurtim dilbandlari barkamol avlod!*

Bahrom AKBAROV

OBUNA - 2010

Respublikamizdag'i barcha  
nashrlarda bo'lgani kabi kelgusi  
yil obuna jarayoni  
«Tong yulduzi»  
gazetasida ham qizg'in bormoqda.

2 - betda





2009

Tong yulduzi  
14-dekabr

## Daraxtlar libosin yechmoqda, qarang

BOLANGIZGA  
QUVONCH  
ULASHING

Joriy yilning 30-noyabrigacha viloyatlar bo'yicha obuna natijalari bilan tanishar ekanmiz, bir narsa ko'nglimizni ko'tardi. Mushtariylarimiz soni yildan-yilga oshib bormoqda. Yana shuni ham ta'kidlashni istardikki, har yilgi an'ana bu yil ham davom etmoqda. Yangi obuna mavsumida dastlabki natijalarga ko'ra, Farg'ona viloyati peshqadamlit qilmoqda. Samarqand, Namangan va Andijon viloyatlari ham peshqadamlar safidan munosib o'rinn olish uchun astoydil harakat qilmoqdalar.

**Q**oraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarda obuna darajasi pastligi kishini o'ylantiradi. Buxoro, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyati va Toshkent shahrida bolalarning sevimli nashriga e'tibor hozircha biroz sustligi sezilmoqda.

Shunga qaramasdan, joylardagi mutasaddi tashkilotlar mazkur holatni o'rganib chiqib, obuna borasida katta o'zgarishlar qilishlariga umid bildiramiz. Shu bilan birga, obuna ishlarini yaxshilashda ota-onalar ham mas'ul ekanliklarini ta'kidlashni istardik.

**G**azetamizning 2010-yilgi rejalariga Gulcan, «Barkamol avlod» yilida bolalarning sevimli yozuvchilari Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tohir Malik, shoirlardan Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Qambar O'tayev va Abdurahmon Akbarlar bu

OMINA  
XATO QILDI

ladi. Bir chetga to'plaganidan so'ng, oyisining yo'qligidan foydalanib, «Xazonlarni qachon axlat qutisiga olib boraman», degan o'y xayolidan kechdi va ularni yoqib yubordi. U yodlayotgan bayram she'rini xazonbarglar uyumi ustiga tushib qolganidan bexabar edi. Xazonbarglar tutuni ko'chadan o'tayotgan odamlarning yo'talini qo'zg'adi. Kimdir xazon yoqqan odamni la'natladi.

She'rini topa olmayotgan Omina esa birdan xazon yoqayotganida cho'ntagidan tushurib qo'yanligini anglati va qilgan ishidan qattiq afsuslandi. Axir endi bayramda she'r aytma olmas edi-da. Shunday qilib, Omina boshqa xazonbarglarni yoqmaslikka qaror qildi.

*Kuz keldi o'lkaga, atrof tillarang,  
Daraxtlar libosin yechmoqda, qarang.  
Barglar ko'chalarga to'shar poyondozi,  
Siz esa ularni yoqmang, iltimos!*



Nozima MAMATALIYEVA



«Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga

2009-YIL-QISHLOQ TARAQQIYOTI  
VA FAROVONLIGI YILI  
«GULSHAN» IMNI  
QIZG'ONAMAN

Men Gulshan joylashgan joydan o'tib ketayotgan odamlar kunning sovuq bo'lishiga qaramasdan yer chopayotgan dehqonga ko'zlar tushibdi. Salom-alikdan so'ng, dehqon ularga: «Nasib qilsa, qaytishingizga qovun pishadi», debdi. Haqiqatan ham shunday bo'libdi. Hojilar dehqonni duo qilibdilar va: «Siz qalbi chin ota ekansiz», deyishibdi. Shundanmi, dehqonchilikni boshlashdan avval hamqishloqlarim «Qalbi chin ota»da tadbir o'tkazishadi, karnaychilar mahallasi esa xizmatda bo'ladi. Shundan so'nggina yerga urug' ekadilar.

Men ana shunday chin insonga hamqishloq bo'lganimdan faxrlanaman. *Sevara XOLBOYEVA, Farg'ona viloyati, Farg'ona tumanidagi Gulshan qishlog'i*

## OSTONA - KICHIK VATAN

Qishlog'imizda to'qqizta mahalla bo'lib, ulardan biri karnaychilar mahallasidir. Bu mahallada asosan san'atkorlar yashaydi. U yerning yosh-u keksasi biror-bir musiqa asbobini chalishni biladi. Biri karnay chalsa, biri surnay chaladi, yana biri nay chalib, to'y va tantanalarga fayz kiritadi.

Qishlog'imizda to'qqizta mahalla bo'lib, ulardan biri karnaychilar mahallasidir. Bu mahallada asosan san'atkorlar yashaydi. U yerning yosh-u keksasi biror-bir musiqa asbobini chalishni biladi. Biri karnay chalsa, biri surnay chaladi, yana biri nay chalib, to'y va tantanalarga fayz kiritadi.

Qishlog'imizda «Qalbi chin ota» ziyoratgohi bor. Aytishlaricha, qadim zamonalarda Haj safariga shu ziyoratgoh

## TAHRIRIYATDAN:

*Oadrli o'quvchilar! Yil davomida gazetamiz sahifalarida muntazam e'lon qilib borilayotgan «Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga yakun yasaldi.*

*Shu kunga qadar sizlardan ikki yuzdan ortiq maktublar oldik. Ularning har birida siz qishlog'ingiz tarixi va zahmatkash qishloq doshlaringiz haqida to'qinlanib, mehr bilan yozdingiz. Buning uchun sizlarga tashakkur.*

*Gazetamizda imkon qadar ko'proq maktublardan foydalanishga harakat qildik. Foydalanilmaganlarini ham qo'shib, tanlov hay'at a'zolariga havola etdik.*

*Biz uchun barchangiz g'olibsiz. Ammo tanlov tanlov-da. Navbat, g'oliblik shohsupasida ko'rishguncha!*

Yayra SA'DULLAYEVA

**SH OAZIM OVVOZ**

Shoazim yaqinda qiziq odat chiqardi: g'iring desang, «Urisasanmi?» deb turib oladi. Yana ko'kragini kerib, gerdayib qo'yadi. Tumshug'iga boplab tushiray deyma-n-u... Lekin... Bugungi qilg'i-chi, judayam oshib tushdi. Darsga qo'ng'iroq chalinganda, Ergash bilan ikkovlari eshikka baravar kelib qolishdi-yu, bir-birlariga yo'l bermay, xo'roz bo'lib ketishdi. Shoazimvoy Ergashning yoqa-

1

2

sidan shunday tutdi-yu, yo'lakka itarib yubordi. Ergash ham qarab o'tirarmidi?! U ham Shoazimga yopishib ketdi. Men biringga arpa, biringga bug'doy, demoqchi

## XORIJ

## HABARLARI


## FAZO KEMALARI

Volgogradda o'quvchilar ishtirokida «Ochiq fazo» nomli ko'rik-tanlov o'tkazish rejaga kiritildi. Unda yosh konstrukturlar o'zлari yasagan raketa va fazoviy kemalari modellari bilan ishtirok etadilar.

Tanlov 2010-yilning fevral oyida yakunlanib, g'olib o'quvchilar ijodlari Bolalar texnik ijodiyot markazi da namoyish etiladi.



## TUMOV ORTGA CHEKINDI




Yakutskda A/H1N1 tumov keskin kamayishi kuzatilmogda. Bu ko'rsatkich 15 yoshdan yuqori bo'lgan aholi orasida 58,8 foizdan 11,2 foizga pasaygani aniqlandi. Tadqiqotchilarining ma'lum qilishicha, 35 ta shaharda 7 yoshdan 14 yoshgacha, 30 ta shaharda 3 yoshdan 6 yoshgacha, 26 shaharda chaqaloqlar va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida bu xastalik 50 foizga kamaygan.

## SAVOLLARGA JAVOB BERDI

O'zbekiston mudafaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti Toshkent shahar Sergeli tuman Kengashi qoshida tashkil etilgan o'quv-sport texnika klubini tinglovchilari ora-

## BAYRAM SOVG'ASI



Arxangelskda 22-25-dekabr kunlari «Bolalar huquqini himoya qilish markazi» tomonidan Yangi yil yarmarkasi o'tkaziladi. «Bolalarga bayram sovg'asi» aksiyasi ostida tashkil etilgan yarmarkada 450 nafar kamta'minlangan oila farzandlariga bayram sovg'alarini taqdim etish rejalashtirilgan.

## XAVFSIZ YORITGICHLAR

Rossiya o'quvchilari orasida so'nggi 10 oy davomida 225 ta yo'l-harakati hodisasi kuzatilgan. Bu ko'ngilsiz hodisalarga ko'chalarni yorituvchi chiroqlarning kamligi sabab qilib ko'rsatildi. Qish oylarida kun qisqa bo'lgani uchun hodisalarning aksariyati qorong'uda yuz bermoqda. Yo'l harakati hodisalarini oldini olish maqsadida endilikda nafaqat bolalar, balki kattalar ham qorong'u ko'chalarda yoritgichlar bilan yurishlari lozimligi qat'iy belgilab qo'yildi.

sida yurtimiz Qomusining 17 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining Sergeli tuman bo'limi rahbari Bahodir Haymatov aholining huquqiy savoxxonligini yuksaltirishda Konstitutsiyaning roli va ahamiyati haqida o'z fikrlarini bayon etdi.

Shu bilan birga, yoshlarning savollariga javob berar ekan, har bir inson o'z mahallasi, oila qo'rg'onini xavf-xatardan asrabavaylab, Vatanimizni g'arazli xurujlardan himoya qilish ma'naviy jasorat ekanligini ta'kidlab o'tdi.

GULYUZ tayyorladi

bo'ldim-u, yana indamadim. Yaxshiyamki, Nuriy Shoazimni orqasidan kelib quchoqlab oldi: – «Qo'y, og'ayni, ustoz kelib qoladilar». Shoazim endi Nuriyga «Urishasanmi, qani, davay!» – dedi qizarib-bo'zarib. Gapiga kulgimiz qistaganini ko'rib, battar tutoqib ketdi.

– Nega kulasanlar, paxan bo'lqanimga alam qilyaptimi? Bir kalla qo'yaman.

Ergash baribir yaxshi bola-da. Boshqa indamay ko'ylak-shimini to'g'riladi-da, sinfga kirib ketdi.

Dars tinchlik bilan o'tdi. Ustoz ular o'rtasidagi tortishuvni sezmadilar. Tanaffusda o'qituvchimiz chiqib ketdilar-u, Shoazimning «qilig'i» yana boshlandi. Bu galgi bahonasi polga tushib qolgan qog'oz bo'ldi. U bugun navbatchi edi. Kimdir uning jig'iga tegish uchun ataylab qilganmish. Shoazim qog'oz yonidagi partida

o'tirgan Bahromga yopishib ketdi.  
– Ol, sen tashlagansan! – dedi buyruq ohangida.

– Men emas.  
– Yo'q, sen! Hozir olasan!  
Bo'lmasa, yakkama-yakka chiqamiz.  
Yana janjal boshlanib ketdi. Bu gal qizlar chidasholmadi shekilli, ular ham janjalga aralashib ketishdi. Hammasidan qizig'i, doim jim yuradigan, kamgap Nozima uning oldiga borib ayovsiz gapirib tashladi:

– Namuncha urishqoqsan? Birinchi paxan bo'lsang, o'zingga!  
Shoazim kutilmagan bu «jasorat»dan bir zumgina dovdirab qoldi. Keyin:  
– O'g'il bolalarining ishiga nega aralashasan? Urishasanmi? – deb yubordi dabdurustdan, – rost aytayapman, urishasanmi?  
– Urishaman! – dedi Nozima qat'iy.

Shoazim osmonga qarab xaxolab kulib yubordi. Qo'shilishib biz ham kulduk.

– Bor, toshingni ter, men qiz bola bilan urishmayman.  
– O'g'il bola so'zida turadi. Sen «Urishasanmi?» deding, men «Urishaman», dedim. Qani, boshladik.

Shoazim bu «kekkaygan» qizga o'zini ko'rsatib qo'yamoqchi bo'lib qo'lini ko'targan edi, hamma «voy» deb yubordi. Nozima esa uning bilagidan tutib, orqasiga zarb bilan shunday qayirdiki, Shoazim ingrab yubordi. O'zini o'nglamochi bo'lgan edi, ulgurolmadi. Nozima bir harakati bilan uni yiqitib qo'ydi. Shoazimning pa'chag'i chiqdi. Shunda Nozima uni o'rnidan turg'azib qo'ydi...

– Qani, endiyam sinfdoshimiz duch kelgan bolaga «Urishasanmi?» dermikan?!



1. E.Vohidov 1974-yilda kimning qaysi asarini o'zbek tiliga tarjima qildi?

- A) Shekspirning «Otello» asarini;
- B) Gogolning «Uylanish» asarini;
- C) N.Dumbadzening «Hellados» asarini;
- D) Gyotening «Faust» asarini.

2. E.Vohidovning ilk she'riy to'plami.

- A) 1960-yil «Yoshlik»;
- B) 1969-yil «Yoshlik devoni»;
- C) 1961-yil «Tong nafasi»;
- D) 1970-yil «O'zbegim».

3. Mashhur tarixiy shaxslar va voqealarni madh etuvchi tantanavor uslubdagi she'r.

- A) qasida;
- B) ruboiy;
- C) g'azal;
- D) tuyuq.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi matni muallifi kim?

- A) E.Vohidov;
- B) A.Oripov;
- C) T.To'la;
- D) O'.Hoshimov.

5. «O'zbekiston» qasidasida nima haqda gap ketgan?

- A) 150;
- B) 130;
- C) 160;
- D) 140.

6. «O'zbekiston» qasidasida nima haqda gap ketgan?

- A) tabiat;
- B) yulduzlar;
- C) Vatan;
- D) ota-onalar.

7. 1998-yilda A.Oripovga qanday unvon berilgan?

- A) O'zbekiston xalq shoiri;
- B) xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi;

D) «Oliy Majlis» deputati;  
E) «O'zbekiston Qahramoni».

8. O'Umarbekov asarlari qatorini toping.


- A) «O'zbegim», «O'zbekiston»;
- B) «Oq gul», «Safsar gul»;
- C) «Faust», «Illohiy komediya»;
- D) «Xatingni kutaman», «Yurak so'zlar».

9. A.Qahhor tomonidan yuksak baholangan qissa?

- A) «Sevgim, sevgilim»;
- B) «Qizimga maktublar»;
- C) «Qiyomat qarz»;
- D) «Yoz yomg'iri».

10. «Qizimga maktublar» asari nima maqsadda yozildi?

- A) insonlarga ruhiy madad berish uchun, o'zligini anglash;
- B) yetti pushtini bilish, ibratlari fazilatlarga ega bo'lish;
- C) hammaga yordam berish, saboq berish;
- D) o'zidan yaxshi nom qoldirish.



# JURNALI MEHMONIMIZ

*Hayotimning va ijodiy faoliyatimning eng go'zal va unutilmas davri bolalarimizning sevimli nashri – «Gulxan» jurnalida ishlaganim, desam to'g'ri bo'ladi. Chunki bu o'spirinlik hokimiysi hali yaxshiga ham, yomonga ham aylanib ulgurman beg'ubor olamdan iborat bo'ladi. U misoli plastilin – mumki, undan arslon ham, sichqon ham yasash mumkin.*

*Umr o'tadi, biroq, orzu qilardimki, kelajakda kimdir meni ham «Gulxan» jurnalida ishlagan, deb eslasa...*

**Abdulla ORIPOV,**  
*O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri*

*«Gulxan» adabiyotimiz rivoji uchun ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. Uning sahifalarida e'lon qilingan ko'plab asarlar adabiyotimiz durdonalariga aylangan. Istagim: «Gulxan» sahifalarini iste'dod durlari hamisha bezab tursin!*

**Jumaniyoz JABBOROV,**  
*O'zbekiston xalq shoiri*

## YURAGIMGA JOYLANDI

**«Gulxan»jon!**

*Maktabimizda she'riy mashqlarimni tekshirib, xato, kamchiliklarimni mahorat bilan ko'rsatib beradigan ustozni hali uchratmadim.*

*Shu sababli, o'z bilganimcha she'r va hikoyalar mashq qilib, tahririyatga yuborgan edim, menga she'r yozish qoidalari, ko'rsatmalarini bitilgan xat keldi. Demak, sen mening ilk ustozimsan!*

*Mashshoqlarning sozidagi Jo'shqin kuyni dilga soldim. Men dunyoda eng baxtli man, «Gulxan»jondan maktub oldim.*

*Juda olis qishloqlarning birida qalbi bir olam umidlarga to'la muxlisang*

**Adolat ALLABERDIYEVA,**  
*Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanidagi 27-maktab o'quvchisi*

*Bolalar matbuoti, asosan, bolalar hayotidan nafas oladi. Bolalarning g'aroyib hayoti bilan yashaydi, bolalar dunyosini ko'zguda ko'rsatgandek tasvirlaydi. Bolalar va o'smirlarning sevimli jurnali «Gulxan» ham hamisha bolalarning qalbiga qulq solib, ularning orzu-o'ylarini sahifalarida yoritib kelayotgan nashrlardan biri. Keling, yaxshisi, jurnalda amalga oshirilayotgan ibratli ishlar, kelgusi rejalar, umuman, bolalar nashrlari dunyosida kechayotgan o'zgarishlar va bolalar adabiyotidagi qizg'in jarayonlar haqida jurnal Bosh muharriri – tanqli yozuvchi va publitsist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ashurali JO'RAYEV bilan bo'lgan suhabatni e'tiboringizga havola etamiz.*



## BEG'UBOR OLAMDAN IBORAT



**– Ashurali aka, necha yoshingizdan boshlab galama oshno bo'lgansiz?**

– Necha yoshligini aniq bilmayman-u, lekin 7-sinfda o'qib yurganimda ilk maqolam chiqqan. Ko'proq tuman gazetasiga yozardim. Asosiy mavzu: maktab va o'quvchi do'stlarim hayoti. Asta-sekin qishloqda sodir bo'layotgan qiziqarli voqealarini yoza boshladim. Qishloqning yaxshi va ilg'or odamlari to'g'risidagi lavhalar gazeta sahifalarini bezadi. Respublika miqyosidagi ilk maqolam «Tong yulduzi» gazetasida bosilganini hamisha hayajon bilan eslayman. Bu menga katta ishonch bag'ishlagan. Agar yanglishmasam, «Qulf» deb nomlangan ilk hikoyam ham shu sevimli gazetada bosilgan. Shu bois, «Tong yulduzi»ni hamisha minnatdorlik bilan tilga olaman.

**– So'nggi paytlarda bolalarning kam kitob o'qiyotgani, ko'proq kompyuter o'yinlariga, qo'l telefonlariga berilib ketayotgani haqida tashvish bilan gapirilayotir va yozilayotir. Nima deb o'ylaysiz, bu hol uzoq davom etadimi yoki o'tkinchimi?**

– Faqat bolalarning emas, balki kattalarning ham kitobdan biroz uzoqlashib borayotgani sir emas. Kattalar kitobdan uzoqlashdimi, tabiiyki, bolalar ham uzoqlashadi. O'yaymanki, bu o'tkinchi holat. Chunki kitob insoniyatning buyuk kashfiyoti. Undan uzoqlashib ketib bo'lmaydi. Endi kompyuter o'yinlarida ham, qo'l telefonlarini ishlashinda ham me'yorni bilish kerak. Me'yorni bilmagan – adashadi. Hozir dunyoning rivojlangan

mamlakatlarida bolalar, ayniqsa, maktab o'quvchilarini uchun qo'l telefonlarini cheklash va ta'qiqlash choratdbirlari ko'rileyotgani ham fikrimizga dalil.

**– O'quvchilik yillaringizda biror-bir xato yo kamchilikka yo'l qo'yganman, deb o'ylaysizmi?**

– Bu holat har bir inson hayotida sodir bo'ladi. Bolalik davrida kamchiliklarga yo'l qo'yish esa tabiiy. Aslida, bilsangiz, xatolar va kamchiliklar odamni ulg'aytiradi, uni tarbiyalaydi. O'yab qarasam, o'quvchilik yillarida unchalik ko'p bo'lmasa-da, xato va kamchiliklarga yo'l qo'yganman. Ko'proq til o'rganmaganimga hali-hanuz achinaman. Ba'zan sport bilan jiddiy shug'ullanmaganimga afsuslanaman. Shu bois, maktablarga uchrashuvlarga borganimda, barcha fanlardan yaxshi, a'lo o'qish bilan birga, ko'proq til o'rganing, sport bilan shug'ullanishdan aslo charchamang, deb qayta-qayta takrorlashdan charchamayman.

**– Maktabda qanday baholarga o'qigansiz?**

– Faqat a'lo baholarga o'qiganman.

**– Ashurali aka, Siz bilan bo'lgan qisqa suhabatimizni yakunlab, barkamol avlodni tarbiyalashdek xayrli ishlarining, ijodiy faoliyatining ham hamisha a'lo bo'lishini tilab qolamiz. «Gulxan» jamoasining ishlariga hamisha omadlar yor bo'lsin!**

– Rahmat.

**Sahifani Farhod TOLIPOV tayyorladi**



**– Bolalikingizda sodir bo'lgan biror ibratli yoki qiziqarli voqeani eslaysizmi?**

– Bolalik aslida bir-biridan qiziqarli va betakror voqealar shodasidan iborat. Qay birini eslamang, ibratlari bo'lib tuyulaveradi.

Qishloq bolalari uchun mol boqishning o'ziga xos gashti bor. Kimdir o'ynaydi, kimdir kitob o'qyidi, kimdir biror mavzuda suhbatlashadi, yana kimdir o'qigan yo eshitgan ertagini aytib beradi. Men ko'proq kitob o'qirdim. Ba'zan bobomdan eshitgan ertaklarni bolalarga so'zlab berardim. Shunday ajoyib kunlarning birida kechga yaqin mollarni uyga haydar kelayotganimizda, yo'ldan – qabriston yaqinidan ikki qulochcha keladigan arqon topib oldim. Xursand bo'lib uni uyga olib keldim.

Ishdan vaqtliroq qaytgan otam mollarni ayvonga bog'lashga yordam berdilar. Qo'limdagи arqonni ko'rib:

– Kimniki, qayerdan olding? – deb so'radilar.

– Topib oldim, – dedim xursand bo'lib.

– Qayerdan olgan bo'lsang, o'sha joyga eltilb tashla. Nima qilasan birovning narsasini. Darrov olgan joyingga tashlab kel! – dedilar jahl bilan. Va o'sha arqon bilan oyoqlarimni «siladilar». Men oyoqlarim og'rib, ko'zlarimda yosh bilan arqonni olib dalaga jo'nadir. Qorong'u tushib qolgani bois, qabriston nihoyatda vahimali ko'rinish, yuragim dukillab urib ketdi, arqonni u tomonga otdim-u, orqamga qaramay uyga yugurdim.

Bu voqealarni uchun bir umr ibrat bo'lib qoldi. Halihanuz yo'limda biror narsa yotganini ko'rsam, qaramayman...

2009

Tong yulduzi  
14-dekabr

## «QUVNOQ TANAFFUS»

5

MEN QUYOSHNI  
UYG'OTAY

Har tong saxiy quyoshning iliq nurlari meni qarshi oladi. U nafaqat meni, balki butun olamni uyg'otadi, go'yo.

- Qiziq, quyoshning o'zini kim uyg'otar ekan-a, buvijon?
- Buvijonim kulib qo'yidilar.
- Quyoshni men uyg'otsam bo'ladi? - so'rayman ulardan.
- Albatta, lekin buning uchun juda barvaqt uyg'onishing kerak bo'ladi...

Suhbatimizni eshitib qolgan singlim Zilola ham har kuni barvaqt turib, quyoshni uyg'otmoqchi bo'lardi. Bir kuni u hatto tuni bilan uxlamay chiqishga ham qaror qilgan. Lekin baribir tongga yaqin uxlab qolgan va ko'zlarini ochgach quyoshni ko'rib, yig'lab yuborgandi...

Quyoshni uyg'otish menga ham sira nasib qilmagan. Shunda tezroq katta bo'lishni orzu qillardim. Chunki kattalar - oyim, dadam, buvim va buvamlar juda barvaqt uyg'onishardi-da...

Oradan yillar o'tdi. Biz ham ancha ulg'ayib, quyoshni hech kim uyg'ota olmasligini tushunib yetdik. Buvim singlim ikkimizning bolalikdagi orzularimizni aytib, har zamonda kuldirib qo'yadilar.

Lekin nimagadir o'sha olis bolalik yillarimga qaytgim, quyoshni uyg'otishim mumkinligiga ishongim kelaveradi.

Sarvinoz UMRZOQOVA,

Q'zMU qoshidagi Sirojiddinov nomli akademik litsey o'quvchisi

QIZIQARLI  
MASALALAR

MATEMATIKA  
so'zidagi harflar o'rni ni almashtirganda, nechta har xil so'zlarni hosil qillish mumkin?

Uch qutida 10 do-nan qalam bor. Birinchi qutida ikkinchisiga qaraganda 4 ta kam va uchinchisidan 5 dona ko'p galam bor. Har qaysi qutida necha donadan qalam bor?

1000 dan ki-chik bo'lgan 5 ga ham, 2 ga ham karrali (ya'ni, bo'linmaydig'an) bo'laman sonlar nechta?

Dilnoza USMONOVA,  
O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov  
akademik litsey o'quvchisi

**Illi xonali sondagi o'nlik soni birliklar sonidan 4 marta kichik, 4 sonining yig'indisi esa eng kichik ikki xonali son. Shu sonni toping.**


Sichqon labirint bo'ylab yuguryapti. Labirint shunday tuzilganki, sichqon ikki eshikdan birini tanlashi kerak. Keyin uchdan birini, so'ng to'rtdan birini tanlashi lozim. Eshikdan orqaga qayta olmaydi.

Savol: Necha usul bilan sichqon labirintning bosidan oxirigacha o'tishi mumkin?

## BO'ZON

Salom qadrdomim  
«Tong yulduzi»!

Maktabimiz kutubxonasi dagi taxlamlaringni varaqlab o'tirib, «Quvnoq tanaffus» sahifasi dagi «Milliy o'yinlarni o'rganamiz» nomli maqolani o'qib qoldim. Shunda dugonalarim bilan katta tanaffus paytida sevib o'ynaydigan milliy o'yinlari mizdan birini yozib yuborishga ahd qildim:



Bo'zon - qadimgi o'zbek milliy harakatlari o'yini bo'lib, keng maydonda (40x35m), maysazorlarda o'ynaladi. O'yin uchun oddiy qiyiqcha (belbog') kerak bo'ladi. Unga bir siqim qum va qipiqlik yoki mayda somon solib tugiladi. O'yin har qaysisi olti nafar o'yinchidan iborat ikki jamoa o'rtasida bo'ladi. O'yin boshlanishidan avval maydonning bet chizig'i o'rtasida, 3 metr masofada diametri 1,5 - 2 metr

keladigan doiracha hosil qilinadi. Hakam tugunni maydon markaziga uloqtiradi, ikki tomonda turgan jamoalar markaz tomon yuguradilar.

Birinchi bo'lib tugunchaga yetib borgan bola uni sheri giga, sheri giga yana boshqasiga uzatadi.

Tugunni doirachaga birinchi bo'lib olib borib tashlagan tomonga bitta xol (ochko) yoziladi. O'yin shartiga qarab uch daqiqadan 15 daqiqagacha davom etishi mumkin. Bo'zon, shuningdek, sport zallarida ham o'ynaladi.

Shoira BOLQULOVA,  
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi  
10-umumta'lim maktabning  
9-«A» sinf o'quvchisi



- Dada, Alp qayerda? - so'radi Alijon televizor ko'rib o'tirgan dasasidan.

- Oyingdan so'ra, hamisha hamma narsaning o'rnini o'zgartirib qo'yadi.

Ona qiziga dedi:  
- Mana senga o'nta konfet. Ya r m i n i ukangga ber.

- Men unga uchta sini beraman.  
- Nega, sanashni bilmaysanmi?

- Men-ku bilaman-a, ukam bilmaydi-da...

Otasi yuvinish xonasidan hadeganda chiqavermagan o'g'lidan so'radi:

- Nega tishingni ketma-ket yetti marataba yuvyapsan?  
- Shunday qilsam, hafta davomida yuvmasam ham bo'laveradi-da...

Birinchi sinf o'quvchisiga o'qituvchi tanbeh beryapti:  
- Nega dars paytida ovqat yeb o'tiribsan?  
- Shunday qilsam, tanaffus paytida bema-lol o'ynayman-da.



## Yomg'ir yog 'ar tomchilab, Tomimizni qamchilab

### YOMG'IRJON

Yomg'ir yog 'ar tomchilab  
Tomimizni qamchilab.  
Mungli qo'shiq kuylaydi,  
Armonlarin so'laydi.

Goho yog 'ib ko'l bo'lar  
Hovuzlar suvgaga to'lar.  
Mayin-mayin yog 'ar goh  
Namxush bo'lar dala, bog'.

Go'zal uning xonishi  
Juda mungli yog 'ishi.  
Ko'kartirar ekinni,  
U yog 'sa, suv to'kini.

Muyiba OTAMURODOVA,  
Xorazm viloyati, Xazorasp  
tumanidagi 4-umunta'l'm  
o'rta maktabning 7-«V» sinf  
o'quvchisi

Mayingina kuylar u,  
Maysalarni o'ylar u.  
Dillarni xushnud etib,  
Agar yog 'sa yayar u.

Mayli, yoqqin yomg'irjon  
Yog 'averin bearmon.  
Baralla kuyla har on,  
Qo'shiq aytgin, yomg'irjon.



### QOR

Yog 'averar bo'ralab,  
Ey, oppoq qorim.  
Men senda ko'raman,  
Orzu armonim.

Misli kapalakdek  
Tushar osmondan.  
Zarracha qadr qolmas,  
Dilda armondan.


Dillardan ketadi  
Sen yog 'sang g'ubor.  
Oppoq orzularday,  
Ey, pokiza qor.

### YUZLARIDAN GULLAR O'PGAN

Bobolarim qo'nim topgan,  
Yuzlaridan gullar o'pgan.  
Yomg'irlar xush ifor sepgan,  
Jannatmakon Vatanim bu.

Minorlarda naqshlar ko'p,  
Shoirlar ko'p, baxshilar ko'p.  
Yaxshilardan yaxshilar ko'p,  
Jannatmakon Vatanim bu.

Oltin unar tuprog'ida,  
El farovon quchog'ida.  
Turar qalblar ardog'ida  
Jannatmakon Vatanim bu.



### BAHONACHI SUYAR

Yomg'ir tomchilab yog 'ar  
Tanani junjiktirib.  
Shataloq otib Suyar,  
Keldi darsga kechikib.  
  
Ustozi so'rар undan:  
– Nega kech qolding, Suyar?  
U der: – Yomg'ir yo'l bermay,  
Usti boshimdan quyar.



MALIKABONU,  
Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi  
18-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi

Aleksandr ASRTRYESOV

### TARVUZNI KIM YEDI?

Illi do'st – Fil bilan Sichqon hamisha bir-birlari bilan bahslashib yurar ekanlar. Chunki ularning har biri o'z fikrini o'tkazishga harakat qilar ekan. Bir kuni ular tarvuz topib olishibdi.


– Bahaybat tarvuz ekan! – hayratlanib debdi Sichqon. Buni hammasini yeb, tugatib bo'lmaydi.

Fil e'tiroz bildiribdi:

– Namuncha kichkina bo'lmasa, no'xotdek keladi-ya, tishimning kavagida qolib ketadi.

Shunday deb bahslashayotganlarda, Begemot kelib qolibdi va ularga qarab:

– Sichqon nohaq. Tarvuz katta emas, sichqonning o'zi juda kichkina. Fil ham yanglishyapti, tarvuz kichkina emas, uning o'zi juda katta. Tarvuz esa oddiygina, qanday bo'lsa, shunday. Sizlarga to'g'ri kelmaydi, menga esa ayni muddao! – debdi-da, rahmat aytib tarvuzni mazza qilib yeb olibdi.



Zahra HASANOVA tarjimasi

### YAXSHILIK

Sen ham maqsad bilan yashagin,  
Odamlarga qilgin yaxshilik.  
Og 'irini sen yengil qilgin,  
Bajo ayla odamgarchilik.  
  
Tanti, mard bo'l, aziz do'stginam,  
Muhtojlarga ko'rsat saxovat.  
Dardlariga bo'lolgın malham,  
Yaxshilikni aylagin odat.  
  
Yaxshilik qil ota-onangga,  
Ustozingga ko'rsat ehtirom.  
Sodiq bo'lgin do'st-dugonangga,  
Sendan qolsin yaxshi degan nom.

Umida SUVONOVA,  
Termiz shahar, Termiz tumanidagi  
5-umumta'l'm maktabining o'quvchisi

### DANTE ALIGYERI

(1265 – 1321)

Italiyalik mashhur yozuvchi. Yosh Dante o'rta asr maktabida tahsil oldi. 1283-1291 yillarda «Yangi hayot» she'riy to'plamini bitdi. «Illohi komediya» uning eng mashhur kitobidir. U uch qism – «Do'zax», «A'rof» va «Jannat» qismlaridan iborat. Asarning har bir qismi 33 qo'shiqdan iborat. Unda jami 100 ta qo'shiq bor.



Oz-oz o'rganib, dono bo'lur

Hayot insonni har xil  
kuya solib, turli  
muammolarni  
ko'ndalang qo'yadi.  
Siz ham goho shunday  
vaziyatga duch kelasiz.  
Aytaylik, do'stingizning  
gapidan ranjib  
qoldingiz. Shunda u  
bilan bahslasha  
boslaysiz.  
Bahs, tortishuv kerak.  
Donolar: Bahs jamiki  
narsalarning padari  
deb aytishgan. Aqli  
odamlar bosiqlik,  
vazminlik bilan bahs  
yuritib, xato va  
kamchiliklarini  
bartaraf etishadi.



### HIKOYA

Anvar aqlli bola. Shavkat o'rtoq'i qo'l telefonini  
yo'qotib qo'yib, unga tuhmat qildi.

Anvar:

– Menga tuhmat qilma, o'rtoq, qidirib ko'r,  
balki biror yerda qoldirgansan! – dedi bosiqlik  
bilan.

Shavkat shovqin ko'tardi va «Sotkamni sen  
olgansan», deb rosa baqirdi...

Bahsga butun sinf aralashdi. Tortishuv to sinf  
rahbari kelguncha davom etdi.

Ertasiga darsga kelgach, qizarib-bo'zarib:

– Anvar, kechir, «sotkam»ni kecha uyda  
qoldirgan ekanman! – dedi.

Anvar do'stining yelkasini ohista silab: –  
O'rinsiz bahs odamning o'ziga ziyon keltiradi! –  
dedi va uni kechirdi.

### DONOLAR BAHS HAQIDA

Kimki nohaq bo'lsa, u birinchi achchiqlanadi.

U.PYEKN


Bahsda go'yo sen uchqur toysan,  
Qizishmasang, ko'p yiqilmaysan.

Nosir XUSRAV

2009

Tong yulduzi  
14-dekabr

## Yangi bunyod etilayotgan maydon dunyo ahlini lol qoldirishga qodir



*Ishonchim komilki,  
O'zbekistonda sport va  
birinchi navbatda bolalar sporti-  
ni har tomonlama rivojlantirish  
uchun qilinayotgan barcha ishlar  
-bu o'zbek sportining yangi  
zafarlari garovidir.  
Islam KARIMOV*

# SINOVLARDAN BOSHLANAR HAYOT

«Ta'lif to'g'risida»gi qonun va «Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» orqali xayrli ishlar o'z samarasini bera boshladi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan joylarda barpo etilayotgan ko'rkm, zamonaviy sport inshootlari sizning xizmatingizda. Darhaqiqat, barkamollik yo'lida birgina sport sohasida istiqlol yillarda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, sizning yoshingizga mos harakatlari va sport o'yinlarining tashkil

etilib kelinayotganligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.


Dunyo miqyosida «Kichik Olimpiada» maqomini olgan uch bosqichli musobaqalar yoshlarimiz faxriga aylandi. Maktab partasidanoq championlik sari ilk qadam, aynan «Umid nihollari»dan boshlandi. «Barkamol avlod» hamda oliy o'quv yurtlari talabalarining «Universiada» musobaqalari yoshlarni yangi marralar sari chorlab turibdi.

## MUSOBAQADAN MUSOBAQAGACHA

Yildan yilga musobaqalar ommaviyligi oshib bormoqda. Raqibi o'zidan kuchliroq ekanligini bilgan bola mashqlarda toblanib, g'alabaga bo'lgan ishtiyogi kuchayib bormoqda. Sport bilan muntazam shug'ullanish kundalik ehtiyojiga aylandi. O'z kuchiga, g'ayrati va shijoatiga ishonchi ortmoqda.

2002-yilda Farg'onan viloyatida bo'lib o'tgan «Umid nihollari» musobaqalarining respublika bosqichiga qadar jami 5 mljn. nafarga yaqin o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, Xorazm viloyatida o'tkazilgan o'yinlarning dastlabki saralash bahslarida bu ko'rsatkich yanada o'sdi. Mazkur musobaqalarda ishtirokchilar soni Qashqadaryoda, Sirdaryoda bo'lib o'tgan bahslarda ham o'z ifodasini topdi. Shubhasiz, xayrli ishlar musobaqadan musobaqagacha yangi iqtidorlarni kashf etmoqda.


Bu ham siz  
bolajonlar uchun  
ajoyib tuhfadir.  
Poytaxtimizda  
qad rostlayotgan  
«Toshkent» sport sha-  
harchasida ayni kunda ish-  
lar ko'lami avjida. Quruvchilar  
eng zamonaviy va qudratli texnikalar



## G'OLIBLARNING YANGI MAYDONI

yordamida «Bunyodkor» jamoasi uchun 34 ming o'rinci o'yingoh, yettita turli xil mashg'ulot maydoni, yopiq suv havzasini, bir necha sport zallari hamda bolalar futbol Akademiyasini barpo etishmoqda. Sport shaharchasining umumiyligi maydoni 36 hektarni tashkil etadi. Usti yopiq ikki qavatlari o'yingoh, uning atrofida yugurish yo'lakchalarining yo'qligi muxlis va futbolchilarni bir-biriga yanada yaqinlashtiradi.

Albatta, bu qurilishlarda buyuk kelajak, yoshlarimizni xalqaro maydonlardagi dadil qadami-yu ulkan g'alabasiga tamal toshi qo'yilayotganiga guvoh bo'lamiz. O'ylaymizki, yosh sportchilarining yangi bunyod etilayotgan maydoni, dunyo ahlini lol qoldirajak.



## KELAJAKNING IMTIHONI

- Jamoamizning zamon talablariga javob beradigan bazasi yo'q edi, - deydi «Bunyodkor» professional futbol klubi ijrochi direktori Tavakkal Ismoilov. - Bor-yo'g'i bitta mashg'ulot maydoni kattalar, o'rincbosarlar, o'smirlar va bolalar tarkibi uchun xizmat qilayotgandi. Ayni kunda qurilish ishlari jadal olib borilyapti. Sport shaharchasi ikki qismidan iborat bo'lib, birinchisi klubning o'yingohi va mashg'ulot maydonlari, ikkinchi qismi esa bolalar futbol Akademiyasidir. Bu Akademiyaga mamlakatimizning turli viloyatlaridan iqtidorli bolalarni saralab, o'qishga qabul qilamiz. 250 nafar bola viloyatlardan va 150 nafari Toshkent shahridan qabul qilingan iste'dodli bolalar futbol sir-asrorlarini o'rganish bilan birga, shu yerning o'zida o'rta ta'lif dasturi bo'yicha ham saboq oladilar. Akademiyaga kirish shartlari ancha jiddiy. Bolalar bu nufuzli dargohning a'zosi bo'lislari uchun imtihon topshiradilar. Futbolsevar bolajonlarga shuni mammuniyat bilan aytamizki, yangi futbol mifikabiga sobiq o'zbek futbol yulduzlaridan Baxtiyor Ashurmatov, Rashid Gafurov, Oleg Belyakov, Yorqin Nazarov, Ilhom Mo'minjonov murabbiylikka jalb qilingan.

«Barkamol avlod» yili ostonasiga qadam qo'ygan yoshlarimiz o'z oldilariga qo'ygan har qanday imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tishlariga ishonamiz.

**SPI'RiT**

Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

# FARZAND DEB YASHAYMIZ

Istaymizmi, yo'qmi, bola baribir bola-da, u sho'x va o'yinqaroq bo'ladi, bil'aks, sodir bo'layotgan yong'inlarga aynan shu o'yinqaroq bolalar sababchi bo'lishmoqda. Ularni o't balosidan muhofaza etish uchun qo'limizdan kelgancha yordam ko'rsatyapmiz. Birinchi navbatda, bola ongida o't balosi haqida tasavvur uyg'otish muhimdir. Shu mavzuda o'tkazilayotgan uchrashuvlar o'z samarasini bermoqda.


B.SOG'INDIQOV,  
katta serjant

Bolalar bizning kelajagimiz. Ularni asrab-avaylab, har taraflama yetuk inson bo'lib kamol topishlariga barchamiz javobgarmiz. Shunday ekan, ulardan nasihatlarimizni ayamasligimiz kerak. Nima uchun murg'ak go'daklar bizning loqaydligimiz oqibatida otash qurboni bo'lishi kerak?! Hech kim o'z farzandini nogiron bo'lib qolishini xohlamaydi, albatta. Yong'in esa bir necha soniyada insonni mol-mulkidan va yaqinlaridan ajrata oladigan bir ofatdir.

Bolalarni yong'indan asrang, yaxshilar!

Zoyir AKBAROV,  
kapitan

Bola ongida o't balosi haqida tasavvur uyg'otish noxush holatlarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan mактабгача tarbiya muassasalarida tez-tez uchrashuvlar, suhabatlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Aholi turar joy binolari, xonardonlarning yong'in xavfsizligi holatlarini tekshirish mavjud kamchiliklar haqida ma'lumotga ega bo'lish ham yuz berishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur tekshirishlarning bevosita mahalla faollari ishtirokida o'tkazilishi va joyida tahlil qilinishi hududdagi aholini yong'in xavfsizligi qoidalariga jiddiyroq qarashga, yong'inni keltirib chiqaruvchi sabablarini bartaraf etishga undaydi.



Qizlarimiz uchun mo'ljallab tikilgan g'aroyib sumkachalar va liboslar o'zida milliylik bilan bir qatorda zamonaqiylikni ham mujassamlashtirgan.

Men va dugonamga Olga Mixaylovna tomonidan ko'rgazmaga qo'yilgan asl shoyi va ipak matolaridan tikilgan ro'mol va sharflar ko'proq yoddi. Milliy an'analarimizni o'zida aks ettirgan bu kabi ko'rgazma va tadbirlar ko'proq bo'lishini istardik.

Shahlo XOLMATOVA,  
yosh muxbirimiz

## BILASIZMI?

Dunyoda eng kuchli bolakay qayerda yashashini bilasizmi? Uning ismi-sharifi Juliano Stroedir. Bu bolakay asli ruminiyalik bo'lib, hozir Italiyada yashaydi.

Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan bu bolakay ikki yoshidan boshlab shtanga bilan shug'ullana boshlagan. Otasi bilan doimo sport zaliga qatnagan. Ammo shifokorlar uning bu harakatini ma'qullamay, o'sib kelayotgan organizmga zararli bo'lishi mumkin, deb ta'kidlashmoqda.

Olmani muntazam iste'mol qilib yurgan odamning umri uzun bo'larkan. U nasaqat umrni, balki inson organizmini ham yoshartirar ekan. Bunday xulosani Britaniya olimlari ilgari surishmoqda. Demak, olmani kun davomida iste'mol qilib yuring.

Begemot juda ulkan bo'lsa ham, odamga qaraganda tez yugurar ekan.



Tahririyatimizning jonku-yarlaridan bo'lmish Ma'mura opamiz va Zubayda singlimizni tug'ilgan kunlari bilan tabriklaymiz.

JAMOA



BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOY

**Muassislar:**  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'Imagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Axtamkul KARIM,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinosbasi),  
Feruza ADIROVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 700129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel/faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 28057  
Buyurtma N: J 8612